



## **DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISH**

**Suyunova Diyora Husniddin qizi<sup>1</sup>, Ernazarova M.S<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2 – kurs talabasi,

<sup>2</sup>Ilmiy rahbar – f.f.d. (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5744779>

### **MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 10-noyabr 2021

Ma'qullandi: 15- noyabr 2021

Chop etildi: 20- noyabr 2021

### **KALIT SO'ZLAR**

*didaktika, didaktik o'yinlar, ijodiy fikrlash, dunyoqarash, tafakkur, o'yinli texnologiyalar.*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada didaktik o'yinlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish va dunyoqarashini shakllantirish haqida so'z yuritilgan.*

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lif jarayoning samaradorligini oshiradi, ta'lif jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'quv motivlari ta'lif jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rinn tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'lifning samarali bo'lishiga, o'quvchilarining o'quv bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarining qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'lifning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarining bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarining bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi [1; 15 - 20].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishda didaktik o'yinlar ham o'z o'rniiga ega. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarini darsga, fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ularning har xil didaktik o'yinlar orqali ijodiy fikrlashi shakllanib dunyo qarashi rivojlanadi. Agar o'quvchi ijodiy fikrlay olsa, uning tafakkuri ham yuksalib boradi. Didaktik o'yinlar bolaning his - tuyg'usiga ta'sir etib, unga o'qishga ijodiy munosabat, qiziqish hislatini tarkib topdiradi. Bolalar o'yinda zo'r



mammuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar. Didaktik o'yinlar o'tkazish jarayonida bolalar o'zlarini mustaqil boshqara olishi kerak. Didaktik o'yinlar o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, bolalar nazarida faqat tarbiyachi emas, do'stga ham aylanadi. Didaktik o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, tushunarli va ta'sirchan, chiroyli so'zlash, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga qarab to'g'ri, o'rini va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Darhaqiqat, ona tili orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsuli og'zaki va yozma shakllarda tog'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rini foydalanish, fikrini sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini kengaytirishga qaratishimiz zarur. A.Hamroyev ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish o'quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o'stirish, ta'lim jarayoni samaradorligi bolalar o'zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi [3; 39 - 42].

Boshlang'ich ta'lim umumiyl o'rta ta'limning asosiy poydevori sanalib

o'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi asosiy ta'lim bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda, boshlang'ich ta'lim muassasalari uchun katta e'tibor qaratilyapti. Boshlang'ich ona tili darslarida ijodiy fikrlashni oshirish, nutqiy tadbirkorlikni rivojlantirish so'z va uning ma'nolarini ustida ishlashga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning o'rganishi uchun tavsiya etilgan har bir mavzu, ularning yosh xususiyatlari va ona tilini o'rganish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda berilishi hamda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi metod va usullarini to'g'ri tanlay olishi kerak.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan, asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham bir tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab



berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zлari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yin – ta'lism beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limi maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi [5; 109 - 111].

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, erkin va teran fikrlashga, o'z fikrlarini ravon ifodalashga o'rgatishning zamonaviy usullaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Bolalarning barkamol avlod bo'lib yetishishida so'zlashishi madaniyati, to'g'ri va mantiqli gapira olish qobiliyati bo'lmog'i lozim. Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohatlarimizning markazida o'quvchining ta'lism jarayonining sub'ekti – faol ishtirokchiga aylantirish yotadi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqeа va hodisalarining immitatsion modeli yaratilishi sohasidagi aktiv faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinda bolalarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limi vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan

farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlar tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati o'yin qoidasi. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida bolalarning bilish faolligini oshirishga, bolalarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U bolalar xulqini ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijalarga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi bolalarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt ham tarbiyachi uchun bolalarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilyotgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatgichi hisoblanadi. Ta'lism jarayonida tashkil etilgan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lism beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir [2; 61 - 64].

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikdagi faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat muayyan vazifalarini bajarishiga bag'ishlangan bo'ladi. O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakter «ijod maydoni» ga ega bo'ladi. Tatqiqotchilar



o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi. O'yining didaktik maqsadi – bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko'nikmalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan

uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi [4; 32 - 37].

Didaktik o'yinlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish ularni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Didaktik o'yinlarni dars jarayonida qo'llash o'quvchilarni harakatga undaydi, ularning ijodiy fikrashi va dunyoqarashining shakllanishiga asos bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva H. A., Bikbaeve N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konstepstiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6-son. 63 b.
2. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Toshkent. 2008. 276 b.
3. Hamroyev A. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida kognitiv - pragmatik usul elementlaridan foydalanish xususida. Pedagogik mahorat. 2014. 140 b.
4. Zayniddinova M. O'quvchilarning mustaqil fikr faoliyatini rivojlantirish omillari. Xalq ta'limi. 2004. 1 - son. 78 b.
5. G'affarova T., Nurillayeva Sh., Xaydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. Toshkent. "O'qituvchi". 2004. 237 b.